

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR MEROSIDA AXLOQIY-PSIXOLOGIK QADRIYATLARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

**Abdirayimov Akbarali A'zamjon o'g'li**

*University of Business and Science pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylarning ma'naviy-axloqiy qarashlari, ularning ta'limot shakllanishi, diniy va axloqiy manba va ildizlari o'rganilgan. Amir Temurning yoshlikdan boshlab ilm-fan, san'at va diniy ta'limotlarga bo'lgan hurmatini ta'kidlash bilan birga, uning nafaqat davlat arbobi, balki ilm-fan va ma'naviyat sohasidagi oliy axloqiy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlovchi shaxs sifatidagi o'rni o'rganilgan. Shuningdek, maqolada Temurning islomiy ta'limotlarga e'tiqodi, diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal egallashi, axloqiy fazilatlarini va ilm-fan rivojiga qo'shgan hisssasi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Temuriylar, ma'naviy-axloqiy qarashlar, pedagogik tahlil, diniy-axloqiy manbalar, ilm-fan, madaniyat, shariat, tasavvuf, "Temur tuzuklari", axloqiy fazilatlar.

### KIRISH


Amir Temur Ko'ragon ibn Amir Tarag'ay (1336-1406) “Temur tuzuklari” asarining ma'naviy – ma'rifiy va pedagogik mazmuni xususida fikr yuritishdan oldin uning ana shu ta'limoti shakllanishining zaminlari, diniy-axloqiy manba va ildizlari haqida aytib o'tishga to'g'ri keladi. Amir Temur ulug' davlat arbobi bo'lish bilan birga zamonasining komilu fozil, benazir dahosi, Yaratganning nazari tushgan mislsiz qobiliyat va iste'dod egasi, ilm-fan va madaniyatning noyob sohibi edi. Buyuk bobokalonimiz yoshlik kezlardan boshlab Sharq tarixi va falsafasiga, adabiyot va san'atga, islom dini va uning odob-axloqqa oid muqaddas ta'limotiga iymone'tiqod bilan qaragan. U xandasa, falaqiyot, mantiq, ilohiyot, fiqh, falsafa, tarix, axloqshunoslik, jug'rofiya, tibbiyot, adabiyot va san'at ilmlarini teran o'zlashtirgan. Zamonasining rasmiy uch tili, — turkcha, forsa va arabchani chuqur va mukammal bilgan. Temurning shijoatli ruhida ilm va ilm axdiga hurmatu e'zoz favqulodda kuchli bo'lgan. “Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'idan mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aqlu idrok egasi bo'lib o'sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi. Qur'oni Karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi. Imon-e'tiqodli, halolpok inson bo'lib etishdi” Amir Temur naqshbandiya tariqatining asoschisi Xoja Baxouddin va u yaratgan ta'limotga ixlos-e'tiqodi nihoyatda kuchli bo'lgan.

Amir Temur Xoja Shamsuddin Kulol, Sayyid Amir Kulol, Mavloni Zaynuddin Abu Bakr Toybodi, Mir Sayyid Baraka singari ulug' diniy allomalarni o'ziga pir deb bilgan, ularning ma'naviy-ruhiy madadlaridan, ta'limotlaridan doimo mislsiz kuch-quvvat olgan, buyuk davlat tizimini yaratish va mustahkamlashda foydalangan. Ilmiy manbalarda

yo‘zilishicha, Amir Temur mudom, saltanatda erishgan jamiki narsam va mustahkam makonlarni fath qilishim — bular hammasi Shayx Shamsuddin alFaxuriyning duosi, Shayx Zaynuddin al-Havofiyniing hikmati tufayli va barcha topgan barakalarim esa faqat Sayyid Baraka yordamida , bo‘lgan, der ekan. Amir Temur islom rahnamolari — sayyidlar, shayxlar, xo‘jalarga samimiyat bilan munosabatda bo‘lgan. Buyuk jahongirning islom diniga munosabati va tasavvuf ahliga e‘tiqodi uning “Tuzuklar” va unga nisbat berilgan “Tarjimai hol” deb nomlangan asarlarida, Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” kitoblari va boshqa ilmiy manbalarda o‘z ifodasini topgan. “Yana tajribamda ko‘rib bildimki,-deydi Amir Temur davlat agar dinu oyin asosida qurilmas ekan, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xsharkim, uni ko‘rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigito‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi. Shuning uchun men o‘z saltanatim binosini dini islom, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladim... O‘z saltanatimni shariat bilan bezadim”. Amir Temur sayyidlarga mehribonlik qilib, ularni o‘ziga yaqin tutgan. Ulamo va fozillarga izzat-ikrom ko‘rsatib, ularni boshqalardan ustun va ulug‘, deb bilgan. Diniy arboblari, ulamo va shayxlar bilan mazmunli bahslar yuritgan, martabalarini har doim oshirib, sovg‘a-salomlar in‘om etib turgan. “Musulmonlarga diniy masalalardan ta‘lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqxdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim. Turli mamlakatlardagi sadrlar va qozilarga shariatning asosiy talablari qanday bajarilayotganligi xususida menga xabar qilib turishni buyurdim. Shunga o‘xshash har el va har shaharda sipoh va raiyat orasida urf-odatlariga oid janjallashishlar haqida menga ma‘lumot berib tursin, deb adolat amrini tayinladim. Shu tariqa dinni rivojlantirib, shariatni musulmon mamlakatlariga yoydim” Mustaqil Turkiston davlati ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishda Amir Temur Qur‘on va Hadis talablariga qat’iy amal qilgan, ularga zid ish qilishga zinhori yo‘l bermagan. U islom dinini, shariat qonun-qoidalarini xurofot, bid‘at, mutaassiblik, johillik, razolat, shakkoklik, diyonatsizlik kabi illatlardan astoydil turib himoya qilgan. Amir Temur diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni ham mukammal o‘zlashtirgan. Ilm-fan va madaniyatning u xabardor bo‘lmagan biron-bir sohasi bo‘lmaganligiga uning keng qamrovli, mazmunan nihoyatda chuqur “Temur tuzuklari” misoldir. Ilmiy, falsafiy, tarixiy manbalarda, hozirgi zamon muarrixlarining asarlari, ilmiy tadqiqotlarida Amir Temurning Movarounnahr, Xurosonning bir necha ming yillik ilmfani, Amir Temur yoshligida olishuv-kurash, ot o‘yinlari, chavandozlik, poyga, merganlik (tirandozlik), qilichbozlik, nayzabochlik, tosh ko‘tarish, uzoqqa chopish kabi musobaqalarda qatnashib, chiniqqan. Yoshligidagi bu o‘yin-mashqlar keyinchalik sohibqironga juda asqotgan. Mustaqilligimiz sharofati bilan tarixni xolisona o‘rganish, tarixni soxtalashtirmay, uning sarhadlarini buzmay, bor haqiqatni oydinlashtirib ma‘lumot berish imkoniyatlariga ega bo‘ldik. Chunki uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o‘z vatandoshini qadrlash, uning mavqeini munosib o‘rniga qo‘yish imkonidan mahrum edi. Darhaqiqat o‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo‘yoq bilan o‘chirildi, unitilishga

mahkum etildi. Bundan ko‘rinadiki xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g‘urur tuyg‘usini yo‘qotish, xalqni qaramlikka, tobelikka ko‘ndirish edi. Lekin o‘zbek xalqi o‘z ajdodlarini, o‘z bahodirlarini unitmadi, hamisha yuragida, qalb to‘rida saqladi. Muhammad Tarag‘ay Bahodir o‘g‘li Amir Temur yoshlik chog‘idan mard, dovyurak, g‘ururli, o‘tkir zexn va aql-idrok egasi bolib o‘sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san‘atni egalladi, Quroni Karimni yod oldi, hadis ilmini o‘rgandi, iymon- etiqodli, halol-pok inson bo‘lib yetishdi. Darhaqiqat, I. A. Karimov ta’kidlaganidek insof-iymon tuyg‘usi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyb yarmiga jahongir ersa-da, u kuch- qudrat, zo‘rlik, zo‘rovonlik emas adolatda ekanini teran anglatdi. Shu bois bo‘lsa kerakki, o‘tmishda ilm ahli, mashxur muarrixlar o‘z asarlarida Amir Temur ismiga Ko‘ragon, Sohibqiron, Qutbiddin, Abulmansur kabi unvonlarni qoshib, uni e‘zozlab, ulug‘lab, hikoyat, rivoyat va xotiralar bitganlar. Tarixiy manbalarda zikr etilishicha, Amir Temur xushfellik, adolat, saxovat, islom axloq-odob qoidalariga rioya va amal qilish, insonlarni jamiyatda tutgan o‘rinlari qanday bo‘lishidan qat’iy barchani birdek hurmat qilish, ular bilan samimiy muomalada bo‘lish, berilgan vada va zimmaga olingan ahdnomalarni vaqtida bajarish kabi qator yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan. U yoshligidan o‘z oldiga ona yurti mo‘g‘il bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo‘ydi, yer yuzida buyuk saltanat soxibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko‘tarib, dunyoga mashxur qildi. Amir Temur davlati qurilishi, harbiy san‘ati ko‘p asrlar davomida Sharq va G‘arb davlatlariga o‘rnak va andoza bo‘ldi. Uning zamonida madaniyat, ilm-fan, me‘morchilik, tasviriy san‘at, musiqa she‘riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko‘p an‘analari takomiliga yetdi. Amir Temurning madaniyat va din axillariga ko‘rsatgan cheksiz mehr-muruvvati ayniqsa ibratlidir. Amir Temur nomi tarixda Movarounnaxr va buyuk Turkiston o‘lkalarida ilm-fan homiysi sifatida ham qolganini ta’kidlash lozimdir.

Amir Temur o‘zining siyosiy faoliyatida adolatni eng muhim tamoyil sifatida ko‘rgan. Uning adolatga bo‘lgan munosabati, nafaqat davlat boshqaruvini mustahkamlashda, balki o‘zining hayotidagi barcha qarorlarida, boshqalarga nisbatan munosabatlarida ham aks etgan. Temur adolatni faqat rasmiy qonunlar bilan bog‘lab ko‘rmay, balki insonning ichki axloqiy mas’uliyatiga, haqqoniylik va halollikka ham katta e’tibor bergan. Amir Temurning adolatga bo‘lgan qarashlari uning boshqaruv tizimi va shaxsiy fazilatlarida o‘z ifodasini topdi. U, shuningdek, o‘z saltanatida islom dinining asosiy qadriyatlarini (shu jumladan, adolatni) amalga oshirishga alohida e’tibor bergan. Amir Temur "Tuzuklar" asarida, davlatni qurish va boshqarishda adolatning ahamiyatini ta’kidlab, har bir amaldor, sudya va boshqaruvchi shaxsning halolligini va adolatli bo‘lishini shart qilib qo‘ygan.



Amir Temurning adolatga bo'lgan munosabati, bugungi kunda ham ta'lim va tarbiya sohasida muhim ahamiyatga ega. Uning adolatni ta'minlash va boshqarishdagi qarashlari, o'quvchilarga faqat ilm berish emas, balki ularni haqqoniylik, tenglik va hurmat asosida yashashga o'rgatadi. Temur, shuningdek, jamiyatda adolatli, hurmatli va halol bo'lishni o'rgatish orqali yoshlarni axloqiy tarbiya olishga undaydi.

#### **XULOSA**

Amir Temur va Temuriylar merosidagi axloqiy-psixologik qadriyatlarning pedagogik ahamiyati zamonaviy ta'limda muhim rol o'ynaydi. Temur o'zining hayoti va siyosatida adolat, halollik, mehnatsevarlik, intizom, o'zaro hurmat, vada va ahdlarga sodiqlik, saxovat, ilm-fan va ma'naviyatga hurmat kabi axloqiy qadriyatlarni asosiy tamoyillar sifatida qo'llagan. Ushbu qadriyatlar, o'z navbatida, pedagogik tizimda o'quvchilarga asosiy axloqiy fazilatlarni o'rgatish, ularni jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam berish, shuningdek, bilim va ma'naviyatni rivojlantirishga xizmat qiladi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Karimov I.A. (1996). Amir Temur va uning zamonasi. Tashkent: Uzbekistan.
2. Sharofiddin Ali Yazdi (1960). Zafarnoma. Tashkent: Fan.
3. Nizomiddin Shomiy (1961). Temur tuzuklari. Tashkent: Fan.
4. Ibn Arabshoh (1994). Amir Temur tarixi. Tashkent: Sharq.
- 5.Olimov A. (2000). Temur va uning davlat siyosati. Tashkent: O'zbekiston.
6. Babadjanov A. (2004). Temuriylar davridagi madaniyat va ilm-fan. Tashkent: O'zbekiston.
- 7.Kamilov A. (2002). Temur va uning axloqiy-psixologik qarashlari. Tashkent: O'zbekiston.
8. Abduqodirov M. (2010). Amir Temur va ilm-fan. Tashkent: Fan.